

DAVLAT MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI XODIMLARINING LAVOZIM YO'RIQNOMALARI

1. Direktorning lavozim yo'riqnomasi

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish, Pedagogik kengashga raislik qilish, tashkilotning tashkiliy-huquqiy, ta'lim-tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy hamda moliyaviy-xo'jalik faoliyatining tashkil etilishini ta'minlash;

Pedagogik kengash bilan birgalikda tashkilotni rivojlantirish strategiyasi, maqsad va vazifalari, ta'lim-tarbiya jarayonini va ta'lim sifatini yaxshilashning asosiy yo'nalishlarini belgilash;

tashkilotning istiqbol va yillik ish rejasi, o'quv-mavzu rejalari, yillik taqvim o'quv dasturlarini tasdiqlash, pedagog va mutaxassislarining ish rejalarini ko'rib chiqish va tasdiqlash, ularni to'laqonli va sifatli ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

shtatlar jadvali va tarifikatsiya ro'yxatlari, mehnat ta'ili jadvalini tasdiqlash;

tashkilotni yuqori kompetentli, mahoratli va malakali mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash;

hududdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan to'liq qamrab olinishini ta'minlash;

o'ziga biriktirilgan hududdagi 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlov guruhlari bilan to'liq qamrab olinishini ta'minlash;

davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida tayyorlov guruhlari tashkil etish uchun bo'sh joylar bo'lmaganida ijtimoiy ob'ektlardan joy topish va u yerda tayyorlov guruhlari tashkil etish uchun sharoit yaratish chorasini ko'rish;

davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini raqamlashtirish jarayonida faol ishtirok etish uchun bilim va ko'nikmaga ega bo'lish;

maktabgacha ta'limni boshqarish axborot tizimlariga tashkilot to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida kiritish;

tashkilotga bolalarni qabul qilish, qabul qilingan bolalar yoshi va kontingentidan kelib chiqib, har yilning avgust oyida buyruq asosida yosh guruhlarni shakllantirish;

bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish;

tashkilotda ta'lim-tarbiya samaradorligini yanada rivojlantirish yuzasidan ochiq mashg'ulotlar, seminarlar, ko'rik-tanlov, musobaqalar o'tkazishga rahbarlik qilish;

tashkilotda dam olish kunlari va ish kuni yakunlangandan keyin bolani parvarishlash, unga qarab turish, uni o'qitish bo'yicha qo'shimcha pullik xizmatlar ko'rsatish ishlarini tashkil etish;

ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarda umumiy asosiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratish;

yagona milliy mehnat tizimi (my.mehnat.uz) saytida pedagog va mutaxassis xodimlarning ma'lumotlar bazasini yangilab borish, har oy yakuni bo'yicha bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlarni berib borish;

turli yo'nalishlardagi davlat va nodavlat jamg'armalar bilan o'zaro hamkorlikda ish yuritish, Kuzatuv va pedagogik kengash hamda boshqa manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda tashkilotni rivojlantirish bo'yicha strategik rejalarni ishlab chiqish va

muvofiglashtirish, tashkilotning yuksak vazifa va maqsadlarini shakllantirish ishlarini tashkil etish;

tashkilot moddiy-texnik bazasini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan mablag' hisobini qilish va yillik xarajatlar smetasini tuzilishida tuman (shahar) bo'limiga taklif kiritish;

tashkilot faoliyatining moliyaviy-xo'jalik masalalarini hal qilish, byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larning shakllanishi, undan samarali foydalanishini amalga oshirish, tashkilotni rivojlantirish uchun byudjetdan tashqari qo'shimcha mablag' topish va moddiy resurslar bilan ta'minlash choralarini ko'rish, tashkilotning investitsion jozibadorligini ta'minlash, shuningdek, ta'limiy maqsadlarga erishish uchun moliyaviy, moddiy resurslarning samarali taqsimotini va xodimlarning safarbarligini ta'minlash hamda qabul qilingan qarorlarning oqibatlari, moliyaviy-xo'jalik natijalariga shaxsan javob berish;

korxona, muassasa va tashkilotlar bilan xo'jalik shartnomalari tuzishda tashkilot nomidan faoliyat yuritish, uning manfaatlarini himoya qilish, ishonchnomalar berish;

yillik moliyaviy rejalarni, ko'rsatilayotgan pullik xizmatlar narxining miqdorlarini va tashkilot mulkidan foydalanish uchun ijara haqi miqdorini ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun ta'lim tashkiloti kuzatuv kengashiga taqdimnoma kiritish;

tashkilot faoliyatini takomillashtirish, moliyaviy-xo'jalik holati, daromadlar va xarajatlar, budjet, budjetdan tashqari, homiylik va boshqa mablag'lardan foydalanish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida ta'lim tashkilot kuzatuv kengashiga vaqti-vaqti bilan hisobotlar berish;

O'zbekiston Respublikasi Bosh Davlat sanitariya vrachining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigiyenik talablar" sanqvan № 0016-21-son qarori (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 26-iyunda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 30) asosida tashkilotda sog'lom va xavfsiz ratsional ovqatlantirish ishlarini tashkil etish hamda sanitariya qoidalariga mos ravishda ovqatlantirishni tashkil etish;

tashkilotda sifatli tibbiy xizmatni tashkil etish va hududiy sog'liqni saqlash muassasalari bilan hamkorlikda ishlash, tashkilot xodimlari va tarbiyalanuvchilarining tibbiy ko'rikdan o'tkazilishini nazorat qilish;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni xavfsiz va sifatli ovqatlanishini tashkil etilishiga oid gigiyenik talablar" asosida tashkilotda sog'lom va xavfsiz ratsional ovqatlantirish ishlarini tashkil etish hamda sanitariya qoidalariga mos ravishda ovqatlantirishni tashkil etish; tashkilot faoliyatiga tegishli barcha axborotlarni tahlil qilish, hisobotlar tayyorlash va ijro intizomini doimiy nazorat qilish;

ta'lim muassasasida o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlar va tadbirlar (saflanish, tarbiyaviy soatlar, bayram, sport tadbirlari va shu kabilar) boshlanishidan oldin o'quvchilar o'z mobil telefonini ta'lim muassasasining kirish qismida o'rnatilgan maxsus javonga (yacheykaga) qo'yib ketishini qat'iy nazoratga olish;

videokuzatuv kameralari xotirasidagi ma'lumotlar va axborotlarning saqlanishiga, ularning boshqa shaxslarga maqsadsiz yoki g'arazli hamda boshqa past niyatda tarqalishining oldini olish;

ta'lim muassasasining videokuzatuv kameralari xotirasidagi ma'lumotlar va axborotlar ta'lim muassasa direktori xonasidagi serverda saqlanishi, videokuzatuv kameralari xotirasidagi ma'lumotlar va axborotlarni ijtimoiy tarmoqlarga chiqib ketmasligi uchun javobgar hisoblanadi.

Tashkilot ish yuritish va hujjatlar aylanish tizimi asosida tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limlari tomonidan berilgan hujjatlar va topshiriqlarning o'z

vaqtida ijro etilishini, ularni tahlil va nazorat qilishning yagona tizimini amalga oshirilishni ta'minlash;

tashkilot xodimlari o'rtasidagi vazifalar taqsimotini belgilash, zaruriyatga qarab tegishli o'zgartirishlar kiritish, ish taqsimoti asosida xodimlarining huquq va majburiyatlarini belgilash;

tashkilotda pedagog va mutaxassislarning o'z xizmat vazifalarining sifatli bajarishlarida tashkiliy-uslubiy yordam ko'rsatish, xodimlarga zarur ish sharoitlarini yaratish choralarini ko'rish hamda mehnat intizomini ta'minlash;

tashkilotda pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, xodimlar attestatsiyasini hamda ular tomonidan mehnat intizomiga rioya qilinishini, ularning ruhiy sog'lomligini psixologik ko'rikdan o'tkazib turish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat ta'lim muassasalari hamda nodavlat ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibini takomillashtirish, maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish, nazorat qilish;

tashkilot xodimlari orasidagi eng faollarini rag'batlantirish, lozim vazifalarini bajarmaganligi uchun ularga nisbatan o'z vakolati doirasida intizomiy jazo choralarini qo'llash masalalarini ko'rib chiqish, jamoada sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish;

tashkilot va ota-onalar o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish, tashkilot faoliyatini rivojlantirish yuzasidan ota-onalar fikrini o'rganish, tashkilotda sog'lom ma'naviy-ruhiy, xavfsiz va rag'batlantiruvchi muhitni yaratish, tashkilot Kuzatuv kengashi faoliyatida obyektiv, oshkorlik va shaffoflikni ta'minlash uchun sharoit yaratib borish;

tashkilotni rivojlantirish yuzasidan istiqbol yo'nalishlarini belgilash bo'yicha buyruqlar qabul qilish, ularni tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining ish rejasi bilan muvofiqlashtirish;

tashkilotda ichki mehnat tartibi qoidalari, jamoa shartnomasi, sanitariya qoidalari va gigiyena normalariga, shuningdek, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilishni ta'minlash;

tashkilot faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq murojaatlar bo'yicha fuqarolarni qabul qilish, tashkilotga kelib tushgan xat, ariza va shikoyatlar hamda murojaatlarni belgilangan tartibda ko'rib chiqish va ijrosini to'liq ta'minlash;

direktor o'rinbosari mehnat ta'tili, kasallik varaqasiga chiqqan hamda malaka oshirishga ketgan vaqtlarda uning lavozim majburiyatlarini bajarish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

2. Direktor o‘rinbosarining lavozim majburiyatlari

Maktabgacha ta’lim tashkilotida metodik faoliyatga rahbarlik qilish;

Direktor o‘rinbosarining o‘z faoliyati davomida O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” va “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, qarori va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarori va farmoyishlari hamda ta’limga oid boshqa amaldagi huquqiy-me’yoriy hujjatlar, berilgan tegishli topshiriqlar ijrosini to‘liq bajarilishini ta’minlash;

direktor bilan birgalikda maktabgacha ta’lim tashkiloti jamoasini boshqarishda ishtirok etish;

tarbiyachi va boshqa pedagog xodimlarning (musiqi rahbari, logoped, psixolog) faoliyati nazorat qilish;

ta’lim tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish, faoliyat jarayonini zamonaviy talab va muammolarga, shuningdek bolalarni ehtiyojlari va yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda moslashtirishni ta’minlash;

tashkilotning yillik va istiqbol ish rejalari loyihalarini ishlab chiqish va tashkilot rahbariyatiga kiritish;

tashkilot pedagog xodimlarining bolalar faoliyatini tashkil etish jadvalini tuzish;

tashkilot pedagog xodimlarining ish rejalari, o‘quv-mavzu rejalari hamda bolalar faoliyatini tashkil etish uchun tayyorgarlik holatlarini nazorat qilish;

tashkilotning yillik ish rejasida belgilangan vazifalarini tegishlilik bo‘yicha sifatli va samarali o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash;

tayanch maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etiladigan “Metodik mahorat kunlari”da ishtirok etish va o‘z kasbiy kompetentligini doimiy ravishda oshirib borish;

“Metodik mahorat soatlari”ni tashkil etish va ular doirasida “Metodik mahorat kunlari”da berilgan ta’limdagi yangiliklar hamda ilg‘or pedagogik va raqamli texnologiyalarni pedagogik jamoaga yetkazish bo‘yicha nazariy, amaliy seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

tashkilotning o‘quv-metodik faoliyatini samarali tashkil etish, bolalarni har tomonlama intellektual, psixologik, ma’naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan isloh qilish yuzasidan pedagog kadrlar bilan ishlash, ularga metodik maslahatlar berib borish;

tashkilot guruhlarida bolalar yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish va faollik markazlarini zarur o‘quv-metodik, didaktik materiallar bilan ta’minlash, ulardan samarali foydalanishini ta’minlash;

tashkilotda tarbiyalanuvchilarning intellektual, psixologik, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishini kuzatish, baholashga doir ma’lumotlarni umumlashtirish, kuzatuv xaritalarini yuritilishini nazorat va tahlil qilish olingan natijasiga ko‘ra aniqlangan bo‘shliqlarni to‘ldirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash;

tarbiyalanuvchilar va ota-onalarni qiziqishini orttirish maqsadida amaldagi davlat ta’lim dasturi asosida turli sport musobaqalari, bayram ertaliklari, ochiq mashg‘ulotlar, ko‘rik-tanlovlar o‘tkazilishini tashkil etish;

pedagog xodimlarga vakolat doirasida davlat ta’lim dasturi talablarini bajarish bo‘yicha topshiriqlar berish va ularning bajarilishini nazorat qilish, xodimlarning kasbiy mahorati, kreativligi va metodik salohiyatini oshirish ishlarini tashkil etish;

ta’lim-tarbiya sifatini yaxshilash, bolalarni maktab ta’limga tayyorlashdagi dolzarb masalalarni pedagogik kengashning muhokamasiga kiritish va unda pedagogik kengash a’zolarining faol ishtirokini ta’minlash, kiritilgan masalalarni chuqur o‘rganish, natijalari

bo'yicha sifatli, tahliliy, tanqidiy ma'lumotlar tayyorlash, qabul qilingan qaror va buyruqlarning sifatli va o'z vaqtida bajarilishini tashkil etish hamda ta'minlash;

me'yoriy ish hujjatlarini pedagoglar tomonidan to'g'ri yuritilishini nazorat qilish, ularga amaliy metodik yordam berish;

tashkilotni o'quv-didaktik, metodik va ko'rgazmali materiallar, o'yin, o'yinchoqlar va musiqa asboblari bilan jihozlashga bo'lgan ehtiyojni aniqlash va rahbariyatga taklif kiritish;

tashkilotdagi guruh xonalarini bolalar yoshiga mos ravishda jihozlash, rivojlantiruvchi muhitni yaratish yuzasidan pedagoglarga tegishli maslahatlar berish;

ta'lim-tarbiya jarayonida bolalarda umumiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish;

ta'lim muassasasida o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlar va tadbirlar (saflanish, tarbiyaviy soatlar, bayram, sport tadbirlari va shu kabilar) boshlanishidan oldin o'quvchilar o'z mobil telefonini ta'lim muassasasining kirish qismida o'rnatilgan maxsus javonga (yacheykaga) qo'yib ketishini qat'iy nazoratga olish;

videokuzatuv kameralari xotirasidagi ma'lumotlar va axborotlarning saqlanishiga, ularning boshqa shaxslarga maqsadsiz yoki g'arazli hamda boshqa past niyatda tarqalishining oldini olish;

ta'lim muassasasining videokuzatuv kameralari xotirasidagi ma'lumotlar va axborotlar ta'lim muassasa direktori xonasidagi serverda saqlanishi, videokuzatuv kameralari xotirasidagi ma'lumotlar va axborotlarni ijtimoiy tarmoqlarga chiqib ketmasligi uchun javobgar hisoblanadi.

Yangi axborot kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, jumladan masofaviy o'qitish (*tarbiyalanuvchining ota-onasi yoki qonuniy vakili bilan hamkorlikda*) usullarini tashkil etish ishlarini qo'llash va takomillashtirishni ta'minlash;

tashkilot pedagog xodimlari o'rtasida sog'lom raqobatli muhitni yaratish maqsadida ko'rik-tanlovlar, tadbirlar, sport musobaqalari, o'quv va amaliy seminarlar tashkil etish va o'tkazish;

tashkilotda ichki mehnat tartibi qoidalari, jamoa shartnomasi, sanitariya qoidalari va gigiyena normalariga, shuningdek, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilishni ta'minlash, pedagog xodimlarga metodik yordam berish, pedagogik faoliyatni tahlil qilish;

tashkilotda pullik va pulsiz to'garaklar faoliyatini yuritishni ta'minlash va uning ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarini muvofiqlashtirish va yo'naltirish;

direktor mehnat ta'tili, kasallik varaqasiga chiqqan hamda malaka oshirishga ketgan vaqtlarda uning lavozim majburiyatlarini bajarish, tashkilotda huquqbuzarlik, uyushgan jinoyatchilik, korrupsiya, giyohvandlik va boshqa zararli odatlardan saqlanish, uning oldini olish choralarini ko'rish bo'yicha ota-onalar va jamoatchilik o'rtasida keng qamrovli targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish;

odob-axloq, ichki tartib, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

3. Tarbiyachi lavozimining majburiyatlari

Tashkilotda ta'lim-tarbiya jarayoniga "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" hamda davlat o'quv dasturlarini joriy etilishi hamda mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalarni to'laqonli bajarish;

yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda bolalar bilan ta'lim tarbiya ishlarini olib borish, ularning hayoti va salomatligini muhofaza qilish bo'yicha yo'riqnoma talablariga qat'iy rioya etgan holda bolalarga ehtiyotkorlik bilan ta'lim-tarbiya berishni takomillashtirish

tashkilotning binolarida va bolalar maydonchalarida sanitariya qoidalari va yong'inga qarshi xavfsizlik qoidalariga amal qilish;

tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olib, tasdiqlangan mashg'ulotlar jadvali asosida faoliyatlarni o'tkazish;

bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlashda ta'lim-tarbiyaning zamonaviy metod va usullarini qo'llay olish, intellektual, psixologik, axloqiy, estetik, jismoniy, xorijiy, ijtimoiy kommunikativ hamda muomala ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan turli xildagi mashg'ulotlarni tashkil etish,

bola shaxsiga alohida yondashuvni, guruh va individual mashg'ulot, o'yin, sahnalashtirish, tabiatga ekskursiyalar (*tashkilot hududidan tashqarida bo'lsa, tashkilot rahbariyatini ogohlantirib, o'rnatilgan tartibda va tarbiyalanuvchining ota-onasi yoki qonuniy vakilidan yozma rozilik olgan holda*) tashkil qilish, bolaning individual xususiyatlari, qiziqish va qobiliyatlarini o'rganish;

o'ziga-o'zi xizmat qilish va hayot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha bolalarning ko'nikmalarini shakllantirish;

guruhlarda davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan ta'lim-tarbiya dasturlaridan bolaning yosh xususiyatini hisobga olgan holda samarali foydalanish, tarbiyaviy ishlar bo'yicha ish rejasiga muvofiq mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish, vizual va didaktik materiallarni tanlash, bolalar orasida sog'lom turmush tarzini faol targ'ib qilish;

rivojlanish xaritasiga muvofiq barcha ma'lumotlarni aks ettirgan holda har bir bolaning rivojlanish xususiyatlarini o'rganish, bolaning rivojlanish jarayonining natijasiga ko'ra, kuzatuv xaritasini o'z vaqtida 3-marta dastlabki (o'quv yili boshida), oraliq va yakuniy bosqichlarda amalga oshirish va o'ziga-o'zi xizmat qilish va hayot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha bolalarning ko'nikmalarini shakllantirish;

maktabgacha ta'limni boshqarish axborot tizimi orqali 6-7 yoshli bolalar rivojlanishi xaritasini yuritish va xulosalarni tayyorlash;

guruhlardagi rivojlantiruvchi faollik markazlarini bolalar yoshiga mos bo'lgan o'quv ko'rgazmali, tarqatma va didaktik materiallar orqali bolalarga zarur sharoitlarni yaratish;

tarbiyalanuvchilar sog'ligidagi o'zgarishlar to'g'risida maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori, tashkilot tibbiy xodimlarini, ota-onalarni darhol xabardor qilish;

tarbiyalanuvchilarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga qatnovini hisoblash davomatini yuritish, ularni tashkilotga kelmaganligi to'g'risida tibbiy xodimlarini o'z vaqtida xabardor qilish, telefon aloqa orqali sababini aniqlash yoki uyiga borib bolaning ahvolidan xabar olish;

guruh kun tartibiga qat'iy rioya etilishini ta'minlash, tarbiyalanuvchilarning kun davomidagi mashg'ulotlar davomida ishtiroki va boshqa harakatlari yuzasidan ota-onalar bilan suhbatlar olib borish;

yil davomida o'tkaziladigan bayram ertaliklariga tayyorgarlik ishlarida musiqa rahbariga ko'maklashish, tashkilot psixologi, defektologi, shtat jadvalida ko'rsatilgan mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlash;

tarbiyachilar tomonidan yuritilishi zarur bo'lgan me'yoriy-metodik hujjatlarni yuritish va maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagogik kengashi, ishlab chiqarish yig'ilishlarida ishtirok etish hamda tashkiloti jamoat ishlarida faol ishtirok etish;

tashkilot o'yin va sport maydonchalarida bolalar hayoti xavfsizligini ta'minlash, belgilangan tartibda qat'iy ravishda tibbiy ko'rikdan o'tkazish;

ish kunining oxirida guruh xonasini tartibga keltirish va ertangi kunga tayyorgarlik ko'rish;

tarbiyalanuvchilar sog'ligidagi o'zgarishlar to'g'risida maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori, tashkilot tibbiy xodimlarini, ota-onalarni darhol xabardor qilish;

tarbiyalanuvchilarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga qatnovini hisoblash davomatini yuritish, ularni tashkilotga kelmaganligi to'g'risida tibbiy xodimlarini o'z vaqtida xabardor qilish, telefon aloqa orqali sababini aniqlash yoki uyiga borib bolaning ahvolidan xabar olish; ota-onalar bilan ishlash, oilada bolalarni har tomonlama rivojlantirish bo'yicha metodik maslahat va tavsiyalar berib borish;

tashkilot rahbariyati bilan kelishgan holda ota-onalar o'rtasida ko'rik-tanlov, sport musobaqalari, ko'rgazmalar, davra suhbatlarini tashkil etish va o'tkazish;

tashkilotda ichki mehnat tartibi qoidalari, jamoa shartnomasi, sanitariya qoidalari va gigiyena normalariga, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilishni ta'minlash;

odob-axloq, ichki tartib, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

4. Psixolog lavozimining majburiyatlari

tashkilotda ta'lim-tarbiya jarayoniga "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" hamda davlat o'quv dasturlarini joriy etilishi hamda mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, psixologik xizmatni tashkil etish;

tashkilot xodimlari, bolalar va ota-onalar bilan ishlash rejasi asosida ishlarni tashkil etish, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan psixologik-pedagogik tashxis va korreksion ishlarni tashkil etish;

bola huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiyaga muvofiq shaxsiy huquqlarini himoya qilishga yordam berish va ijtimoiy ta'lim sohasini uyg'unlashtirishga yordam berish, ijtimoiy tartibsizliklarni oldini olish bo'yicha profilaktik choralarni amalga oshirish;

maktabgacha yoshdagi korreksiyaga muhtoj bolalar bilan yakka ishlashni, shaxsini rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf qilish uchun turli xil psixologik (psixo-tuzatuv, reabilitatsiya va konsultatsiya) yordam ko'rsatish bo'yicha choralar ko'rish;

pedagogik xodimlarni, shuningdek, ota-onalarini maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi muammolariga yo'naltirish maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlarining materiallari asosida psixologik va pedagogik xulosalar tuzish;

5-7 yoshgacha bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda bolalarni diagnostik tekshirishdan o'tkazish, ularning ijtimoiylashishga, umumiy o'rta ta'lim maktabida 1-sinfda o'qishga va moslashishiga psixologik tayyorgarligini aniqlash va tegishli xulosani rasmiylashtirish hamda ota-onalarga tavsiyalar berish;

maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsi va jinsiga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, tarbiyalash dasturlarini rejalashtirish, shuningdek, rivojlantirishda qatnashish, hayotning turli xil holatlarida o'z taqdirini belgilashga tayyor bo'lishlariga yordam berish;

pedagogik, metodik kengashlar faoliyatida, ota-onalar bilan uchrashuvlarni o'tkazishda qatnashish, turli yoshdagi iqtidorli va salohiyatli bolalarni aniqlash maqsadida ular bilan hamkorlik qilish va turli psixologik metodlarni qo'llash, ularning iqtidorlarini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarini belgilash;

pedagogik jamoa bilan tarbiyalanuvchilarning aqli va idroki hamda shaxs sifatida rivojlanishini pedagogik-psixologik tashxislar va korreksiylarning dolzarb muammolariga bag'ishlangan metodik seminarlar, psixologik treninglar o'tkazish;

amaliyotda tarbiyalanuvchilar, ota-onalar hamda tashkilot xodimlarini pedagogik-psixologik tashxislar metodikalaridan (anketalar, psixologik testlar, shaxsiy so'rovnomalar va h.k.) to'g'ri foydalanish va olingan natijalarning maxfiyligini ta'minlash;

bolani rivojlanish xaritasini yuritishda tarbiyachi bilan hamkorlikda yuritib borib, psixolog tomonidan kuzatuv natijasida belgilangan indikatorlar bo'yicha bolalar tomonidan erishilgan natijalarini aniqlash, olingan natijalarga mos ravishda ta'lim jarayoniga tuzatishlar kiritish, individual ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish bo'yicha yakuniy kuzatuvlarni o'tkazilganligini nazorat qilib borish;

maktabgacha ta'lim tashkiloti ma'muriyati tomonidan belgilagan o'quv, uslubiy va tashkiliy ishlarda ishtirok etish;

sanitariya-gigiyena talablariga, mehnat qonunchiligi asoslariga, odob-axloq, jamoa shartnomasi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish;

bolalarni oilada rivojlantirish va maktab ta'limiga tayyorlashda ota-onalarga psixologik ko'maklashish va maslahatlar berish, tashkilotda ota-onalar uchun amaliy yig'ilishlar uyushtirish;

odob-axloq, ichki tartib, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

5. O'qituvchi-defektolog va o'qituvchi-logopedning lavozim majburiyatlari

Tashkilotda rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan, shu jumladan nutqida nuqsoni bo'lgan tarbiyalanuvchilar bilan korreksion-pedagogik mashg'ulotlarni o'tkazish;

tashkilotga qabul qilingan vaqtdan boshlab 2 hafta ichida defektolog mashg'ulotlarning zaruratini aniqlash uchun tarbiyalanuvchilar rivojlanishi va nutqini dastlabki tekshirishdan o'tkazish;

rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari, shu jumladan nutqida nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilarga korreksion-pedagogik yordam ko'rsatish;

nuqsonlarni aniqlashtirish maqsadida va yakka tartibdagi korreksion-pedagogik ish rejasini tuzish uchun kompleks psixologik-pedagogik tekshiruvni tashkil etish;

ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq, shuningdek ular asosida ishlab chiqilgan ta'lim-tarbiya va korreksion faoliyatni tashkil etishda turlariga muvofiq tarbiyalanuvchilarga ta'lim-tarbiya va korreksion pedagogik yordam ko'rsatilishini ta'minlash;

tashkilotning pedagoglari, boshqa mutaxassislari bilan yaqin hamkorlikda ish olib borish, mashg'ulotlarni ko'rish, pedagog xodimlar va bolaning qonuniy vakillarga nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilarga yordam ko'rsatishning maxsus usullar va uslublarini qo'llash yuzasidan maslahat berish;

rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilarga ta'lim-tarbiya berish, ularni ijtimoiy moslashuvi, shuningdek rivojlanishidagi nuqsonlarni korreksiya qilish uchun qulay shart-sharoitlar, shu jumladan inklyuziv ta'lim muhitini yaratish yuzasidan pedagoglar bilan hamkorlikda ishlash va ushbu faoliyatlarni muvofiqlashtirish.

rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlarni, shuningdek xotira, tafakkur, diqqat e'tiborni imkon qadar korreksiya qilishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish;

maktabgacha ta'lim tashkiloti ma'muriyati tomonidan belgilagan o'quv, uslubiy va tashkiliy ishlarda ishtirok etish;

sanitariya-gigiyena talablariga, mehnat qonunchiligi asoslariga, odob-axloq, jamoa shartnomasi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, bolalar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish;

odob-axloq, ichki tartib, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

6. Tarbiyachi yordamchisining lavozim majburiyatlari

Tarbiyachiga bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida yordam berish, ularni sayrga kuzatish, bolalarni muzeylar, xiyobonlar va boshqa dam olish joylariga olib borishda ko'maklashish;

tarbiyachi rahbarligida tibbiy xodimlar bilan birgalikda tarbiyalanuvchilarning salomatligini saqlash va mustahkamlash, ijtimoiy va psixologik rehabilitatsiya, ijtimoiy va mehnat moslashuvi uchun shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlaydigan kundalik ishlarni amalga oshirish;

bolalarga g'amxo'rlik qilish, parvarish qilish, zarur hollarda kiyim-kechak, choyshab yuvish, kiyim-kechak, choyshab, yuvish, ovqatlantirish, bolalarni yotqizish, kiyimlarini quritish, kiyim almashtirish bo'yicha yordam berish, bolalarning yoshini, o'z-o'zini boshqarish ishlarini, mehnat muhofazasi talablariga rioya eta olishini hisobga olgan holda ularni sanitariya-gigienik ko'nikmalarini ta'minlashga yordam berish;

kun tartibiga ko'ra bolalar uchun tayyorlangan taomlarni bolalarga tarqatish qoidalarini tashkil etish hamda idish yuvish va xonani tozalash bo'yicha shaxsan javobgar bo'ladi;

yozi mavsumda bolalarni cho'milish uchun ochiq basseynga tayyorlashga yordam berish, bolalarning quyi guruhlarini cho'milish hovuzchasiga olib borish va guruh xonasiga qaytarishda ko'maklashish hamda guruhda bolalar hayoti va sog'lig'ini himoya qilish, ehtiyotkorlikni ta'minlash;

maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarni aqliy va jismoniy rivojlanishidan kelib chiqib, vatanga, milliy qadriyatlarga muhabbat ruhida tarbiyalash, tarbiyalanuvchilarning muomala ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan guruh va individual mashg'ulotlar, o'yinlar, bayram ertaliklari, sayr va boshqa tadbirlarni o'tkazishda tarbiyachiga ko'maklashish;

guruh xonalarini belgilangan tartibda shamollatish, guruh karantin bo'lgan hollarda sanitariya qoidalarini va gigiyena normativlarida belgilangan tartibda umumiy yig'ishtirish ishlarini olib borish;

maktabgacha ta'lim tashkiloti ma'muriyati tomonidan belgilagan o'quv, uslubiy va tashkiliy ishlarda ishtirok etish;

odob-axloq, ichki tartib, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalarini talablariga rioya qilish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

7. Til o'qituvchilarining lavozim majburiyatlari

“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari” hamda davlat o'quv dasturlarini joriy etilishi hamda mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalarni to'laqonli bajarish;

bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasiga muvofiq holda tillarni o'rgatish;

tarbiyalanuvchi shaxsini hisobga olgan holda pedagogik faoliyat yo'nalishini belgilashi, tilni o'rganish bo'yicha tarbiyalanuvchilar uchun o'yinlar va mashqlarni rejalashtirish va tashkil etish bolalarning yosh xususiyatlari, ularning ijodiy qobiliyatlarini hisobga olgan holda yakka tartibdagi ishlarni tashkil etishi;

bolani rivojlanish xaritasini yuritishda tarbiyachi bilan hamkorlikda yuritib borib, psixolog tomonidan kuzatuv natijasida belgilangan indikatorlar bo'yicha bolalar tomonidan erishilgan natijalarini aniqlash, olingan natijalarga mos ravishda ta'lim jarayoniga tuzatishlar kiritish, individual ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish bo'yicha yakuniy kuzatuvlarni o'tkazilganligini nazorat qilib borish;

til o'rgatishda didaktik materiallarni bola yoshiga mos ravishda tanlash, bolalar bilan guruhda va individual tarzda mashg'ulotlar o'tkazish;

amalga oshirilgan ishlar bo'yicha pedagogik kengash va ota-onalar yig'ilishlarida hisobot berish, ochiq mashg'ulot va seminarlar tashkil etish;

oilada xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha mustahkamlovchi mashqlarni o'rgatish bo'yicha ota-onalarga tavsiya va maslahatlar berish, bolalar tomonidan tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatish;

so'zlarning grammatik tuzilishiga e'tiborni qaratish, bolalarning yosh xususiyatiga ko'ra so'z boyligini oshirish, mashg'ulotlar jarayonida bolalar hayoti xavfsizligini ta'minlash;

maktabgacha ta'lim tashkiloti ma'muriyati tomonidan belgilagan o'quv, uslubiy va tashkiliy ishlarda ishtirok etish;

odob-axloq, ichki tartib, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

8. Musiqa rahbarining lavozim majburiyatlari

“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” hamda “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi va variativ (muqobil) dasturlari, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarini amaliyotga tatbiq etish;

maktabgacha ta’lim tashkiloti rejasiga muvofiq musiqa mashg‘ulotlarini o‘tkazish bo‘yicha seminarlar va ochiq mashg‘ulotlar o‘tkazishni tashkil etish;

maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari, bolalar va ularning ota-onalari bilan o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

maktabgacha ta’lim tashkiloti ma’muriyati tomonidan belgilagan o‘quv, uslubiy va tashkiliy ishlarda ishtirok etish;

tarbiyalanuvchilarning musiqaga bo‘lgan qobiliyatlarini va ijodiy va musiqaviy faoliyatini tashkil qilishning turli shakl va ko‘rinishlaridan foydalanib, ularda estetik didni shakllantirish, musiqani tinglashga o‘rgatish;

tarbiyalanuvchilarning musiqiy qobiliyatlarini yakka va jamoa ko‘rinishda rivojlantirishga ko‘maklashish, maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarning musiqiy bilim darajasini umumlashtirish, tahlil qilish va natijasiga ko‘ra chora-tadbirlar, individual va yosh xususiyatlarini,

ijodiy qobiliyatlarini hisobga olib, qo‘shimcha mashg‘ulotlar rejasini belgilash;

bolani rivojlanish xaritasini yuritishda tarbiyachi bilan hamkorlikda yuritib borib, psixolog tomonidan kuzatuv natijasida belgilangan indikatorlar bo‘yicha bolalar tomonidan erishilgan natijalar va salbiy tomonlarni aniqlash, olingan natijalarga mos ravishda ta’lim jarayoniga tuzatishlar kiritish, individual ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish bo‘yicha yakuniy kuzatuvlarni o‘tkazilganligini nazorat qilib borish;

tarbiyachilar bilan birga tarbiyalanuvchilarni raqsga tushishga, ashula aytishga, musiqiy o‘yinlarga o‘rgatish;

ota-onalarga farzandlarining musiqiy tarbiyaga moyilligi, qobiliyati, iqtidorini rivojlantirish yuzasidan maslahatlar berish, maktabgacha ta’lim tashkilotida tashkil etiladigan bayram ertaliklari, turli ma’naviy ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish;

odob-axloq, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong‘in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

9. Musiqa xodimning lavozim majburiyatlari

“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” hamda “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi va variativ (muqobil) dasturlari, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarini amaliyotga tatbiq etish;

tarbiyalanuvchilarning musiqaga bo‘lgan qobiliyatlarini va ijodiy faoliyatini rivojlantirishni amalga oshirish;

musiqaviy faoliyatni tashkil qilishning turli shakl va ko‘rinishlaridan foydalanib, ularda estetik didni shakllantirish, musiqa asbobida ijro texnikasini mahorat bilan bajarish;

tarbiyalanuvchilar bilan yakka va jamoaviy tartibda ishlash, qobiliyatli va iqtidorli tarbiyalanuvchilarni tanlab olish, ularning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ko‘maklashish;

maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyalanuvchilarning musiqiy bilim darajasini umumlashtirish, tahlil qilish va natijasiga ko‘ra chora-tadbirlar belgilash;

tarbiyalanuvchilarning individual va yosh xususiyatlarini, ijodiy qobiliyatlarini hisobga olib pedagogik faoliyat rejasini belgilash;

bolani rivojlanish xaritasini yuritishda tarbiyachi bilan hamkorlikda yuritib borib, psixolog tomonidan kuzatuv natijasida belgilangan indikatorlar bo‘yicha bolalar tomonidan erishilgan natijalar va salbiy tomonlarni aniqlash, olingan natijalarga mos ravishda ta’lim jarayoniga tuzatishlar kiritish, individual ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish bo‘yicha yakuniy kuzatuvlarni o‘tkazilganligini nazorat qilib borish;

tarbiyachilar bilan birga tarbiyalanuvchilarni raqsga tushish, ashula aytish, musiqiy o‘yinlarni o‘rgatish;

ota-onalarga farzandlarining musiqiy tarbiyaga moyilligi, qobiliyati, iqtidorini rivojlantirish yuzasidan maslahatlar berish;

maktabgacha ta’lim tashkilotida tashkil etiladigan bayram ertaliklari, turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish;

tarbiyalanuvchilarning musiqiy qobiliyatlarini aniqlash, musiqiy iqtidorini aniqlash va bolaning emotsional intellekti va ijodiy iqtidorlarini shakllantirish;

milliy qadriyatlarga amal qilgan xolda, tarbiyalanuvchilarga tushunarli musiqiy repertuar tanlash;

odob-axloq, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong‘in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

10. Jismoniy tarbiya yo'riqchisining lavozim majburiyatlari

“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari” hamda “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi va variativ (muqobil) dasturlari, o'quv-uslubiy qo'llanmalarini amaliyotga tadbqiq etish;

bolalarni jismoniy rivojlantirish bo'yicha o'quv mavzu rejalarini tuzish;

guruhlarda ertalabki badantarbiya mashqlarini o'tkazishda tarbiyachilar bilan hamkorlikda ishlash;

tarbiyalanuvchilar va ularning ota-onalari (ularning o'rnini bosadigan shaxslar) tomonidan jismoniy tarbiya va sport tadbirlari, musobaqalar, sog'lomlashtirish kunlari va boshqa dam olish tadbirlarining tashkil etilishini va o'tkazilishini ta'minlash;

tashkilot rahbariyatiga maktabgacha ta'lim tashkilotining sport jihozlari bilan ta'minlash bo'yicha ehtiyojini kiritish;

jismoniy zaifligi mavjud tarbiyalanuvchilar uchun jismoniy reabilitatsiya choralari ko'rilishini tashkil etish;

bolalarning sog'lom turmush tarzi asoslarini shakllantirishga hissa qo'shish;

tarbiyalanuvchilarning yoshi, tayyorgarligi, shaxsiy va psixofizik xususiyatlari, manfaatlariga asoslangan holda mashg'ulotlarning mazmunini belgilash;

tarbiyalanuvchilarning jismoniy mashqlarni bajarishda, tana a'zolarining harakatlarini to'g'ri rivojlantirish;

jismoniy tarbiya mashg'ulotlari jarayonida tarbiyalanuvchilarning hayoti va sog'lig'i xavfsizligini ta'minlash;

mavjud sport maydonchalari, zallari va jihozlari holati, sanitariya me'yorlariga mosligini, ishlatilishini va saqlanishini ta'minlash;

tibbiy xodimlar bilan birgalikda tarbiyalanuvchilarning sog'lig'ini saqlash holatini nazorat qilish;

bolani rivojlanish xaritasini yuritishda tarbiyachi bilan hamkorlikda yuritib borib, psixolog tomonidan kuzatuv natijasida belgilangan indikatorlar bo'yicha bolalar tomonidan erishilgan natijalar va salbiy tomonlarni aniqlash, olingan natijalarga mos ravishda ta'lim jarayoniga tuzatishlar kiritish, individual ishlarni rejalashtirish va amalga oshirish bo'yicha yakuniy kuzatuvlarni o'tkazilganligini nazorat qilib borish;

bolalarni har tomonlama yetuk shaxs qilib shakllantirishda ota-onalar uchun metodik va maslahatlar berib borish;

pedagogik va metodik kengashlarda, umumiy ishlab chiqarish yig'ilishlarida faol ishtirok etish;

maktabgacha ta'lim tashkiloti ma'muriyati tomonidan belgilagan o'quv, uslubiy va tashkiliy ishlarda ishtirok etish;

odob-axloq, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

11. Suzishni o'rgatish bo'yicha yo'riqchisining lavozim majburiyatlari

Tarbiyalanuvchilarga sog'lom turmush tarzi asoslariga, gigiyena ko'nikmalariga, suvga ijobiy munosabatini shakllantirish;

maktabgacha yoshdagi bolalarga suvda o'zini erkin tutishni va suzishni o'rgatish;

kichik yoshdagi tarbiyalanuvchilarga yoshini hisobga olgan holda, kiyim kechak o'zgartirishga va dush qabul qilishga yordam berish;

bolalarni amaliyotda suzishga o'rgatadigan yangi texnologiyalar va ixtiyoriy dasturlarni joriy etish;

rejaga muvofiq bolalarning diagnostik tekshiruvini yiliga 2 marotaba o'tkazishni ta'minlash;

har bir guruh uchun suzishga o'rgatish mashg'ulotlari jadvalini tuzish, guruhlar yosh tarkibini hisobga olib, tasdiqlangan dasturlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish;

reja asosida tarbiyalanuvchilarning suv havzasida harakat faolligini nazorat qilish, suzish bo'yicha sport-sog'lomlashtirish tadbirlarini olib borish;

maktabgacha ta'limga qo'yilgan davlat talablari asosida suzish bo'yicha malaka ko'nikmalarni o'zlashtira olmayotgan bolalar bilan alohida mashg'ulotlar o'tkazish;

tarbiyalanuvchilarning sog'ligi va jismoniy holatini nazorat qilish, tarbiyachilar va ota-onalarga bolalar sog'ligini mustahkamlash, jumladan suzish bo'yicha va boshqa sport seksiyalari, to'garaklarga jalb qilish bo'yicha maslahatlar berish, ularga metodik va amaliy yordam ko'rsatish;

tarbiyalanuvchilarning sog'ligi yomonlashgani va jismoniy zaifligining jismoniy tiklanishi uchun chora-tadbirlar ko'rish;

mashg'ulotlar paytida tarbiyalanuvchilar sog'ligi va xavfsizligiga javobgar shaxs

hisoblanib, o'zining kasbiy mahoratini, bolalar bilan ishlashning metodik usullarini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari va ota-onalar orasida jismoniy tarbiya bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish;

mavjud sport inshootlari va jihozlarning holatini, ishlashini kuzatish;

tashkilotining pedagogik kengashi va metodik uyushmalar faoliyatida qatnashish, zaruriy hujjatlarni tartibga solish talablariga muvofiq saqlash;

odob-axloq, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

12. Hamshiraning lavozim majburiyatlari

Tashkilotning sanitar holatini doimiy ravishda nazorat qilish;
tashkilotdagi xonalarni doimiy hamda umumiy tozalash jadvalini tuzish va bajarilishini nazorat qilish;
kundalik taomnoma-taqsimotini tuzishda ishtirok etish;
tibbiyot xodimlari tomonidan foydalanadigan zarur hujjatlar shakllarini o'z vaqtida yuritish;
tashkilotda bolalarni chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazishga tayyorlash va o'tkazish;
ko'p tarqalgan kasalliklarning oldini olish bo'yicha har bir bola va butun tashkilot darajasida tibbiy yordamni ko'rsatish;
tashkilotdagi bolalarga shifokorgacha va shifoxonagacha qadar tibbiy yordamni o'z vaqtida ko'rsatish;
ota-onalarga sog'liqni muhofaza qilish va kasalliklarning oldini olish masalalari yuzasidan maslahatlar berish, shuningdek, shifokor bilan hamkorlikda sog'ligida muammolari bo'lgan bolalarga tibbiy-ijtimoiy yordam olishga ko'maklashish;
surunkali kasalliklarni erta aniqlash maqsadida tashkilot xodimlari va tarbiyalanuvchilarini maqsadli va profilaktik tibbiy ko'riklardan o'tkazishda qatnashish;
mavjud tibbiy asbob-uskunalar, apparaturalar va mol-mulkni saqlash hamda ulardan samarali foydalanishni ta'minlash;
dori-darmonlar, bog'lov materiallari va uskunalar sarflanishining hisobini yuritish;
bolalarni sanitariya-gigiyena qoidalari, sog'lom ovqatlanish targ'iboti va sog'lom turmush tarzi ko'nikmalariga o'rgatish bo'yicha tadbirlar o'tkazish;
sanitariya va epidemiyaga qarshi kompleks tadbirlarni o'tkazish, profilaktik emlashlar, tashkilotning umumi sanitariya holatini nazorat qilish, ota-onalarini xavfli epidemik holatlar to'g'risida ogohlantirish;
kasallikdan so'ng kelgan va yuqumli kasallar bilan aloqada bo'lgan bolalarni ertalab termometriya (issiqlikni o'lchash) va boshqa faoliyatni amalga oshirgan holda qabul qilish;
tashkilotda dezinfeksiya o'tkazish ishlarini tashkil qilish;
tarbiyachilari tomonidan olib boriladigan bolalarning kundalik ertalabki qabulini nazorat qilish;
tashkilotga yetkazib beriladigan mahsulotlarning sifatini, ularni saqlash qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish;
tayyor oziq-ovqatlar mahsulotlari (pishiriqlar) sifatini, mahsulotning tabiiy standartlariga mosligini nazorat qilish, ratsionning kimyoviy tarkibini va kaloriyasini muntazam ravishda hisoblab chiqish (bayonnomaga muvofiq).
har kuni tayyor ovqat namunasini olish uchun idishlarni tayyorlaydi va davlat sanitariya epidemiologiya xizmati talablariga muvofiq namunani saqlash uchun olib qo'yish;
namuna uchun qadoqlash holatini, uning markirovkasini kuzatib borish;
kundalik taomlarni guruhlar bo'yicha tarqatishda ishtirok etish;
oziq-ovqat mahsulotlarini guruhlariga ajratish jadvaliga muvofiqligini nazorat qilish, taomnomadagi tarkibni tekshirish;
bolalar guruhlarida kun tartibidagi ovqatlanishni o'z vaqtida bajarilishini nazorat qilish;
odob-axloq, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;
qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

13. Xo‘jalik mudirining lavozim majburiyatlari

Tashkilot binolarining texnik holati, barcha moddiy boyliklar (inventarlar, turli o‘quv ko‘rgazmali jihozlar)ning saqlanishini ta‘minlash;

kunlik taomnomani tuzishda ishtirok etish;

kunlik taomnomada belgilangan barcha turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini oshxonaga berish;

yetkazib beruvchilar tomonidan topshirilgan oziq-ovqat mahsulotlarining yuk xatiga mosligini tekshirish, ularning vaznini o‘lchash va sifatini ko‘zdan kechirish;

omborxonadagi oziq-ovqat mahsulotlarining hisobini yuritish, mahsulotlarni sifat tavsifiga, foydalanish muddatlariga amal qilgan holda saqlash;

omborxonada saqlanayotgan oziq-ovqat mahsulotlarini qayd etish daftarini yuritish;

oziq-ovqat mahsulotlarini qabul qilishni tashkil etish, omborxonaga joylashtirish va ularni saqlashda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga amal qilish;

tashkilotga yetkazib berilayotgan jihozlarni belgilangan tartibda qabul qilish, jihozlarning to‘g‘ri taqsimlanishini amalga oshirish;

moddiy tovar boyliklarning aylanma qaydnomasini yuritish, tashkilotga olib kelingan inventarlarni, xo‘jalik va kanselyariya mollari kirim qilish, ularni o‘z vaqtida tarqatish, ro‘yxatdan chiqarilgan moddiy boyliklarni chiqim qilish;

kommunal to‘lovlar (gaz, suv, elektr va issiqlik energiyasi) bo‘yicha hisoblagichlarning kundalik ko‘rsatkichlarini olib, tahlil qilgan holda, byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan tejamkorlik bilan foydalanishni tashkil qilish hamda hisoblagichlarning sozligi va o‘z vaqtida almashtirilishini amalga oshirish;

telefon tarmoqlaridan foydalanishda, aloqaning uzluksizligini, sifatini nazorat qilish hamda aloqa buzilgan hollarda hududiy telefon tarmoqlari bo‘linmalariga xabar berib, aloqani tiklash choralarini ko‘rish;

tashkilotning sanitariya holatini talablar darajasida bo‘lishida farroshlar, binoni qo‘riqlashda qorovullar, atrof-muhitni obodonlashtirishda texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar ishini muvofiqlashtirish;

bir yilda bir marta jamoat komissiyasi bilan birgalikda moddiy boyliklarni turlari bo‘yicha xatlov (inventarizatsiya)dan o‘tkazish;

tashkilotda obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini tashkil etish;

kuz-qish mavsumiga tashkilot binosi tomlarini, deraza va romlarini, isitish tizimini, kanalizatsiya quvurlarini ta‘mirlab, tayyor holga keltirilishini ta‘minlash;

yakka tartibda isitiladigan tashkilotlarida qattiq va suyuq yoqilg‘i materiallarini qabul qilish va sifatli saqlash, ularni belgilangan miqdorlarda sarflash hamda isitish tizimini optimal darajada ishlashini ta‘minlash;

yong‘in xavfsizligi asboblarini yetarli darajada bo‘lishini nazorat qilish;

ta‘lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha‘ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro‘sinin hurmat qilish;

tashkilot obro‘si va sha‘niga putur yetkazishi mumkin bo‘lgan ma‘lumotlarni tarqatmaslik hamda davlat siriga kiritilgan ma‘lumotlar va maxfiy axborot bilan ishlashda qonun hujjatlari talablariga rioya qilish;

tashkilot ustavi, kasbiy odob-axloq qoidalari, sanitariya-gigiyena, ichki mehnat tartibi, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong‘in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

foydalanish uchun o‘ziga topshirilgan mebel, xona jihozlari, tashkiliy va maishiy texnikadan oqilona foydalanilishi va but saqlanishini hamda o‘zi ish olib boradigan xonada yong‘in xavfsizligi talablariga rioya qilinishini ta‘minlash;

odob-axloq, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;
qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

14. Bosh oshpazning lavozim majburiyatlari

Taomlarni maktabgacha ta'lim tashkilotidagi taomnoma asosida tayyorlash texnologiyasiga amal qilgan holda tayyorlash;

tarbiyalanuvchilarning yoshiga muvofiq tarzda taomlarni porsiyalarga bo'lish va tarqatish;

kunlik taomnomani tuzishda ishtirok etish;

oziq-ovqat mahsulotlarining belgilangan tartibda saqlash va taomnoma asosida to'g'ri sarflanishini ta'minlash;

taomlarni tayyorlashda mahsulotlarga dastlabki va issiqlik ishlov berishni amalga oshirish;

turli xildagi oziq-ovqat mahsulotlarining tavsifi va biologik qiymatini o'rganish hamda organoleptik usul orqali ularning sifat ko'rsatkichlarini farqlash;

issiqlik ishlov beruvchi, vazn o'lchovchi, muzlatgich va boshqa jihozlardan foydalanishda texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilish;

odob-axloq, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

15. Oshpazning lavozim majburiyatlari

Tashkilot oshxonasida bosh oshpaz boshchiligida ishni tashkil etish hamda taomlarni taomnoma asosida tayyorlash texnologiyasiga amal qilgan holda tayyorlash; tarbiyalanuvchilarning yoshiga muvofiq tarzda taomlarni porsiyalarga bo'lish va tarqatish;

kunlik taomnomani tuzishda ishtirok etish;

oziq-ovqat mahsulotlarining belgilangan tartibda saqlash va taomnoma asosida to'g'ri sarflanishini ta'minlash;

taomlarni tayyorlashda mahsulotlarga dastlabki va issiqlik ishlov berishni amalga oshirish;

turli xildagi oziq-ovqat mahsulotlarining tavsifi va biologik qiymatini o'rganish hamda organoleptik usul orqali ularning sifat ko'rsatkichlarini farqlash;

issiqlik ishlov beruvchi, vazn o'lchovchi, muzlatgich va boshqa jihozlardan foydalanishda texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilish;

odob-axloq, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga talablariga rioya qilish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

16. Oshxona ishchisining lavozim majburiyatlari

Tashkilot oshxonasida bosh oshpaz boshchiligida ishni tashkil etish hamda taomlarni taomnoma asosida tayyorlash texnologiyasiga amal qilgan holda tayyorlash;

taomlarni tayyorlashda mahsulotlarga dastlabki va issiqlik ishlov berishni amalga oshirish;

issiqlik ishlov beruvchi, vazn o'lchovchi, muzlatgich va boshqa jihozlardan foydalanishda texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy amal qilish;

odob-axloq, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

17. Kir yuvuvchining lavozim majburiyatlari

Tashkilotdagi hamma yumshoq inventarlarni yuvish, dazmollash va ayrim narsalarni qaynatish;

jadvalga asosan toza narsalarni berish, kir yuvish xonasini tozaligini saqlash;

odob-axloq, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

18. Hovli supuruvchining lavozim majburiyatlari

Tashkilotda hovli-joylarni doimo toza tutish, qishda qorlarni kurash, tozalash;
tarbiyalanuvchilarga o‘yin o‘ynashlari uchun ajratilgan joylarni, ayvonlarni
supurib, tozalash;
turli chiqindilarni tashlaydigan joyni tozalash;
xo‘jalik uchun kerak bo‘ladigan jihozlarni yaxshi saqlanishiga qarash;
tashkilot xodimlari va tarbiyalanuvchilar salomatligiga zarar beradigan
narsa(buyum)larni tezda tozalab olish;
odob-axloq, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza
qilish, texnika va yong‘in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;
qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

19. Xizmat xonalari farroshining lavozim majburiyatlari

Tashkilot xonalarni yaxshilab tozalash, xonadagi changlarni artish, deraza oynalarini doimo toza tutishish;

eshik va devorlarni yuvish, gilamlarni tozalash ishlarini tashkil etish;

hojatxonadagi sochiqlarni o'zgartirish, qog'oz qo'yib borish, unitazlarni tozalash, xloramin bilan yuvish, axlatlarni maxsus joyga tashlash;

gullarni parvarishlab artib tozalash va suv qo'yish;

odob-axloq, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

20. Qorovulning lavozim majburiyatlari

Tashkilotda binoni qo‘riqlash ishini tashkil etish;

o‘z ish kunida ma‘muriyatdan bino va hovli joy eshikni qulfi, kalitlarini, yong‘indan saqlash asboblari, deraza eshiklari butunligini, telefon, signalizatsiya chiroqlarini tekshirib olish;

tashkilot hududida yong‘in chiqsa, darrov tegishli tashkilotga xabar berish, birinchi yordamni berib turish;

hovli va binoni aylanib yurish, chiroqlarga e‘tibor berish, begona odamlarni tashkilot hududiga kiritmaslik;

ertalab oshpaz(oshxona ishchi)larga eshikni ochish, tashkilot hovlisidagi chiroqlarni o‘chirish, tashkilotni o‘zidan keyingi qorovulga topshirib ketish;

ish joyida va navbatchilik vaqtida spirtli ichimlik ichmaslik, uxlab qolmaslik;

tashkilotning moddiy boyliklarni o‘g‘irlanishiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

navbatchilik davridagi holatlar yuzasidan mas‘ul xodimlarga ma‘lumot berish;

odob-axloq, jamoa shartnomasi, sanitariya-gigiyena talablari, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong‘in xavfsizligi qoidalari talablariga rioya qilish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.